



Maftuna Olimjonova

Tayanch doktoranti
Namangan davlat universiteti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-09>

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq ustasi, Akademik Asqarali Akparov hayoti va ijodini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda ustaning hayot yo'li, erishgan yutuqlari, ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Naqqoshlik, ganchkorlik, keramika, farfor, yog'och o'ymakorligi, miniatyura, kalligrafiya, badiiy ijod, "Dil Ba yoru- dast ba kor", ilmiy unvon, ustozlik.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и деятельности народного мастера Узбекистана академика Аскар Али Акпарова и отражает жизненный путь, достижения и творческую деятельность мастера.

Ключевые слова: Живопись, ювелирные изделия, керамика, фарфор, резьба по дереву, миниатюра, каллиграфия, художественное творчество, «Дил ба йорудаст ба кор», учёное звание, наставничество.

Abstract: This article is dedicated to the life and work of the People's Master of Uzbekistan, Academician Asqarali Akparov, and reflects on the life path, achievements, and creative activity of the master.

Keywords: Painting, ganchkor, ceramics, porcelain, woodcarving, miniature, calligraphy, artistic creation, "Dil Ba yoru- dast ba kor", academic title, mastership.



*Insonning qo'li-la yaratib bo'lmas,
Buyuk qalb mahsuli erur bu tilsim.
To dunyo bor ekan, bu san'at o'lmas,
Dillarga nur berib turadi sim-sim.
Muso Akmal*

O'zbekistonning Farg'ona vodiysi tabiati mo'tadil, odamlari xushfe'l, san'at va madaniyati rivojlangan maskanlardan biridir. Bu diyorda Ahmad Farg'oni, Asiriddin Axsikatiy, Maxdumi A'zam Kosoniy, Mavlono Lutfulloh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, ishoqxon Ibrat, Mulla Yo'ldosh Xilvatiy,

Nodim Nomongoniy, Muhammadsharif So'fizoda, Nabixon Chustiy kabi buyuk insonlar kamol topishgan.

Vodiy amaliy san'atining yirik namoyondalari Usto Alinazar Qori, Uto Saidmahmud Norqo'zi, Usto Yusufali Muso, Mullo Qirg'iz Ibrohim Og'aliq o'g'li, Usto Lutfulloh Fozil, Qodirjon Haydarov, Saidahmad Mahmudov, Ibrohimjon Komilovlarning yaratgan asarlari dunyoning yirik-yirik muzeylarida namoyish qilinib, o'zbek san'ati shuhratiga shuhrat qo'shib kelmoqda.

Bugungi kunda yetuk ustozlar san'atini davom ettirib kelayotgan Qo'qonlik yog'och o'ymakor usta, O'zbekiston Qahramoni Abdug'ani Abdullayev, Rishtonlik kulol O'zbekiston Xalq rassomi



Sharofiddin Yusupov, hamda O'zbekiston amaliy san'ati rivojiga o'zining go'zal va betakror, nodir asarlari bilan munosib hissasini qo'shgan Namanganlik amaliy san'at ustasi Asqarbek Akbar nomlari san'atning o'chamas tarixi sahifalariga muhrlangandir.

O'zbekiston amaliy san'atining yetuk namoyondalaridan biri, O'zbekiston xalq ustasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, naqqosh, ganchkor, kulol, chinnisoz, xattot, miniaturachi rassom, san'atshunos Asqarbek Akbar (Akparov Asqarali Adamshayevich) 1951- yilning 10-

fevralda Qirg'iziston Respublikasi, Osh viloyati, Karavan qishlog'ida tug'ilgan. Bobokalonlari zamonasining yetuk bilimdon ulamolari, imomlari, mudarrislari bo'lishib, Bahovuddin Naqshbandiyning "Dil Ba yoru- dast ba kor" (qalbing Allohda, qo'ling ishda bo'lsin) ta'limotiga amal qilib yashagan, ushbu sulolada kulolchilik san'ati ham avlodidan-ajdodga o'tib sayqallanib va rivojlanib kelgan. Savodli, arab imlosida yozish va o'qishni bilganlarga sho'ro hokimiyatining tazyiqi kuchaygan darlarda ota-onasi taqdir taqozosi bilan tog'li Qizg'izistonga borib qolishgan.

Bo'lg'usi musavvir shu tariqa qardosh Qirg'izistonda tavnallud topadi. Bir tomonda "Ko'ksaroy" tog'lari, bir tomonda "Bozpu" tog'larining ajib manzaralari, toshdan-toshga urilib olg'a chopayotgan jilg'alarining billur tovlanishlari, uyda bir necha tilni mukammal bilguvchi, islom falsafasining bilimdonlari, iymon-e'tiqodli ota-onasining o'gitlari, atrofida "Manas", "Semetey", "Seytek" eposlarini yodga solguvchi qirg'iz oqinlarining aytishuvlari, barcha-barchasi birlashib Asqarbekning ijodkor belgilab qo'ygan edi.

12 yoshida Qo'qon shahriga qarindoshlarinikiga borishganda Daxmai-Shohon, Xudoyorxon o'rdasi, Jomiy masjidi kabi mangulikka qo'yilgan haykaldek obidalari naqshu-nigorlar o'spirinni lol qoldirdi. Go'zallikka, san'atga chinakam ishtiyoq uyg'otdi, kelajagini belgilab berdi.

Dastlabki amaliy san'at sirlarini Namanganlik naqqosh Javlonbek Jamalovdan o'rganib, 1979-yilda P. Benkov nomli Respublika Rassomlar bilim yurtiga o'qishga kiradi. U yerda naqqoshlik san'ati sir-u asrorlarini naqqoshlar Tohir To'xtaho'jayev, Jalil Hakimovlardan, rangtasvirni Strelnikov



Yuriy Ivanovichdan, mujassamot amaliyotini An Vladimir Sergeevichdan, san'at nazariyasini Apuhtin Oleg Konstantinovichlardan o'rgandi. Zikr etilgan ustozlarning barchalari xalqimizning ardog'idagi, nomdor ijodkorlar edi. San'atshunos Sotimhon Imomho'jayev Asqarbek Akbar haqida shunday deb yozadi: "Bu yerda tahlil degan so'z rangsiz bo'lib qoladi. Asqarbek ustozlarga chinakam shogirt edi. Ularning mehr- muhabbatiga erishgan, xamkor va safdoshiga aylangandi. Chindan ham shunchaki ma'ruza tinglab ketgan talaba bilan ustoz qanotida ter to'kkan, har bir ishning nahosini bilgan shogirt o'rtasida yer bilan osmoncha farq bo'lsa neajab".



Bilim yurtini a'lo baholar bilan tamomlagan talabaga maxsus oliy o'quv dargohida ko'nikmalarini davom ettirishga yo'llanma berishdi. Biroq tanlagan sohasini mukammal egallash, milliy an'analarimiz ildizlaridan ogoh bo'lish, ularni asrab-avaylab, boyitib kelayotgan sohibi hunarlardan amaliy saboqlar olishi zarurligini tushunardi. Shu boisdan o'sha vaqtda vodiy amaliy san'ati ustalarini bir oiladay birlashtirgan O'zbekiston Badiiy Fondining Qo'qon badiiy ishlab chiqarish ustaxonasiga yo'l oldi.

Asqarbek Akbarning xotirlashicha, Qo'qon badiiy ishlab chiqarish ustaxonasi direktori Rubinov Yuriy Mihaylovich o'zi ham yog'och o'ymakorlik san'atini mukammal egallagan mutahassislardan bo'lib, xalq amaliy san'atining haqiqiy jonkuyar va bilimdonlaridan bo'lgan. O'sha davrlarda, jamoadagi yurtimizning hurmatini qozongan ustozlar O'zbekiston Xalq rassomlari yog'och o'ymakor Qodirjon Xaydarov, naqqosh Saidahmad Mahmudov, kulollar Ibrohimjon Komilov, Sharofiddin Yusupov, kandakor Lutfullo

Fozilov, rangtasvirchi O'zbekistonda hizmat ko'ratgan madaniyat hodimi Tursunali Ahmadaliyevlarning ijodlarining gullagan davri bo'lgan. Asqarbek Akbar ularning har birlarini o'ziga ustoz deb biladi va so'rashdan, o'rganishdan charchamaydi. Shu davrlardan o'zining ham yaratgan ijod namunalari respublika va xalqaro ko'rgazmalarda ko'rina boshlaydi. Atrofidagi sog'lom ijodiy muhit, ustozlarining ko'rsatmalari bilan 1979- yilda xalq rassomlari Rahim Ahmedov, Muhiddin Rahimov, Qodirjon Xaydarovlar tavsiyasi asosida Ittifoq Rassomlar uyushmasiga a'zoligiga 28 yoshida qabul qilinadi va ittifoqdagi eng yosh a'zo sifatida e'tirof etiladi.

“O'sha yili meni vodiy badiiy kengashiga rais qilib saylashdi, xolbuki, mandan munosibroq yirik san'atkorlar yetarli bo'lsada, hech kim “biz emas nega bu yosh bola rais bo'ladi?” degan emas”- deydi musavvir o'tmishni xotirlarkan, “Bu shunga dalilki, san'atga chin oshno dillarga ijod zavqidan o'zga hislar begonadir. Ho'qondi latif azaldan san'atni siylagan, benazir sohibi iqtidorlarni tarbiyalagan hosiyatli maskan. Men uchun ham ustozlik qilgan, ijodkor qilib shakllantirgan, ardoqli va latif shahar bo'lib hotiramda qolaveradi....”.

Asqarbek Akbar nazariy bilimlarini takomillashtirish maqsadida Milliy Rassomchilik va Dizayn institutining “Sanatshunoslik” bo'limini tugatdi. Yirik olimlar Rafail Toktash, Larisa Vyacheslavevna Shostko, Tatyana Nikolayevna Bulkina, Nigora Rahimovna Ahmedovalardan san'at nazariyasini va tarixini o'rgandi.

U 1976-yildan respublika va xalqaro ko'rgazmalarda muntazam qatnashib keladi. Asarlari Hindiston (Dehli), Shveytsariya (Lugano), Mo'g'uliston (Ulan-Bator), Kipr (Nikosiya), Germaniya (Bonn), Armaniston (Yerevan), Qozog'iston (Olma-Ota), Rossiya (Sank-Peterburg,



Moskva, Tula, Qozon, Oryol, Yosh-Karola,



Tambov va b.) ko'rgazmalarida namoyish qilindi. Shaxsiy ko'rgazmasi San-Peterburg shahrining etnografiya muzeyi va Vyatka (Kirov) shahri O'lkashunoslik muzeyi ko'rgazmalar zalida tashkil qilingan. Respublikaning yirik muzeylari: O'zbekiston Davlat San'at muzeyi, A.Navoiy nomli Adabiyot muzeyi, O'zbekiston Xalqlari tarixi muzeyi, O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi, O'zbekiston badiiy ko'rgazmalar direksiyasi tomonidan asarlari qabul qilingan va keng tomoshabinlar ommasiga

namoyish qilib kelinmoqda.

O'zbekistonda 60 dan ortiq, xorijda 20 dan ortiq jamoat binolarining badiiy bezash ishlariga mualliflik qilgan va bevosita o'z rahbarligida ijrosini amalga oshirgan.

Moskva shahridagi SDUM ning rezidensiyasi, MDU ning "Klassik pensioni" binosi, Tatariston Respublikasi Nijnekamsk shahridagi "Madaniy markaz" binosi, Mamadish shahridagi "Milliy an'analar markazi" binosi, Boshqirdiston Respublikasi Ufa shahridagi SDUM ning adminstrativ binosi, "Xorijliklar mehmonxonasi" kabi o'nlab binolarni o'sha yurtlarning o'zida bajarib, chet ellarda ham o'zbek milliy amaliy san'atiga hayrat va hurmat tuyg'ularini uyg'otgan.

Ustaning ko'z nuri, qalb qo'rini berib, tunlarni bedor otkazib sevib ishlaydigan san'at turlaridan biri- bu chinni buyumlarga badiiy ishlov berishdir. Uning boshqa ustalardan farqli boshqalar kabi tayyor bo'lgan oq holatdagi idishlarga ishlamaydi. Kaolin, dala shpati, kvars qumi, dalamat, pigmatit kabi mahsulotlarni qum yoki tosh holatidan boshlab, shaklga keltirish va ohirgi pardozgacha o'zi bajaradi.

Ustaning ikki farzandi- Ahmadjon va Naimahonlar ham ushbu san'atni otasidan meros qilib olganlar. Xususan, ushbu jarayonlarning barchasini katta farzandi Ahmadjon aka mukammal egallagan.

Asqarbek Akbar tabiatan og'ir bosiqli, juda ham kamtarin inson bo'lganlar, xotirasi juda kuchli,



baxs-munozaraga nihoyatda o'ch bo'lganlar. Amaliy ijod bilan birgalikda tavsifiy, tanqidiy, tahliliy maqolalari bilan vaqtli matbuotda faqol qatnashib keladi. "Farg'ona vodiysi arhitekturasida amaliy san'atning ma'naviy-estetik ahamiyati", "Namangan musavvirlari", "Namangan naqsh-u nigorlari", "Go'zallik va nafosat kuychisi" kabi kitoblar, kataloglar muallfi. She'riyatni durust tushungan, sozandalikdan ham xabardor edi.


1999-2014-yillarda 15 yil davomida O'zbekiston Badiiy akademiyasi Namangan viloyat Badiiy ijodkorlar uyushmasi raisi lavozimida ishladi. Bu vaqt davomida turli professional rassomlar

ko'rgazmalari, bolalar rasmlari ko'rgazmalari hamda shaxsiy ko'rgazmalar tashkil etishda, viloyat rassomlarining respublika va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokini ta'minlashda munosib hissa qo'shgan. U ish boshlagan kezlarda uyushma a'zolari 16 nafarni tashkil etgan bo'lsa, raislik faoliyati davomida 42 nafarni tashkil qilib, soni va ijodiy salohiyatining yuqoriligi bilan Respublikada yetakchi o'ringa chiqdi.

Asqarbek Akbar ustoz sifatida ko'plab malakali shogirtlarni yetishtirdi. 2000- yildan to hayoti so'ngigiga qadar, amaliy san'atdagi faoliyati bilan bir qatorda, Namangan davlat universitetida talabalarga mutahassislik fanlaridan saboq berib keldi. Alohida iqtidorga ega bo'lgan talabalar bilan ishlash jonu dili edi. doim atrofini talabalar o'rab olar, usta esa ular bilan san'at tarixi, nazariyasi va yoki qaysidir bir san'at turining texnologiyasini o'rgatayotganliklarini kuzatish mumkin edi.



Samarali ijodiy faoliyati xorijda hamda respublikamizda munosib taqdirlandi. 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov farmoni bilan "O'zbekiston xalq ustasi" faxriy unvoni berilgan. Shuningdek Rossiya Rassomlar uyushmasi diplomi, YUNESKO, BMT, O'zbekiston Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, Tatariston respublikasi Madaniyat vazirligi "Faxriy yorliqlari" bilan mukofotlangan. 2003-yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zoligiga saylanib, "Akademik" ilmiy unvonini olgan. 2011-yilda "Mustaqillikning 20 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Asqarbek Akbar ijodining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Takrorlanmas kompozitsiyaning mavjudligi;
2. Mukammal kompozitsion yechim, ranglar mutanosibligi va yuksak ijro mahoratini egallaganligi;
3. An'anaviy san'atni amalga oshirishda zamonaviy materiallardan keng foydalanish texnologiyasini yaxshi bilishi;
4. Amaliy san'atning bir nechta sohasini yaxshi o'zlashtirganligi, bir ob'ektning o'zida naqqoshlik, ganchkorlik, keramika, farfor, yog'och o'ymakorligi, miniatyura va kolligrafiya sohalaridan keng foydalanib bir yaxlitlikka erishish imkoniyatini beradi.

San'atshunoslik fanlari nomzodi Sotimxon Imomxo'jayev Asqarbek Akbar ijodiga shunday fikr bildiradi: " Bir nechta alohida yirik mutahasis ijodiy zahmatining bir kishi zimmasiga tushishi mislsiz bardosh, g'ayrat va katta mahoratni talab qiladi. Asqarbek shunday yukni elta oladigan yagona professional ijodkordir". Asqarbek akbarning hayoti va ijodi to'g'risida 2019- yilda nasr ustasi Lutfillo Mahmud "Sehrofarin" nomli

kitobini nashr ettiradi. Bu kitobda musavvirning hayot yo'li yozuvchi tomonidan atroflicha yoritib beriladi.

O'zbekiston xalq ustasi, O'zbekiston xalq ustasi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi Asqarbek Akbar 2022-yil 12- fevralda hastalik tufayli hayotdan ko'z yumadi. Barkamol inson sifatida soddadil va kamtarin shaxsiyati barcha shogirtlari, yaqinlari va muhlislari qalbida muhrlanib qoldi. Uning qoldirgan izlari nafosat va ezgulikka qasidadek abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. L.Mahmud. "Sehrofarin". Namangan, 2019-y.
2. B.Jabborov. "Asqarbek Akbar". Namangan, 2016-y. (Nashrga tavsiya qilingan)
3. K.G'ulomov. "Amaliy san'at", T., 2007.
4. P.Qodirxo'jayev. "Badiiy bezak san'ati", T., 2008-y.